

O'ZBEK TILIDAGI DIALEKTIZMLARNING NUTQ MADANIYATIGA TA'SIRI VA ULARNING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI

Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li

*Samarqand davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD)*

G'aniyeva Shaxlo Jahongir qizi

*Samarqand davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti 1-boshqich talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tili sheva va lahjalariga xos so'zlarning zamonaviy nutqdagi o'rni tahlil qilinadi. Dialektizmlarning nutqni boyitishdagi ijobiy xususiyatlari bilan birga, rasmiy muloqot va adabiy til me'yorlariga ko'rsatadigan salbiy ta'siri yoritiladi. Shuningdek, nutq jarayonida yuzaga keladigan leksik-fonetik o'zgarishlar va dialektizmlarning badiiy asardagi estetik vazifalari ilmiy asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Dialektizm, nutq madaniyati, adabiy til me'yorlari, leksik-fonetik tahlil, sheva, lahja, rasmiy muloqot, badiiy-estetik bo'yoqdorlik.*

Til — jamiyat bilan uzviy bog'liq holda rivojlanuvchi jonli va dinamik tizimdir. Har qanday millat tilining asosiy va boyituvchi manbai uning sheva va lahjalari hisoblanadi. O'zbek tili ham o'zining boy va rang-barang shevalariga ega bo'lib, ular adabiy tilning shakllanishida poydevor vazifasini o'tagan. Dialektologiya fani aynan mana shu shevalarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'rganadi. Dialektologiya so'zi grek tildan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim degan ma'noni bildiradi.[2:3] Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir".[2:3] Shu ma'noda shevalarni asrab-avaylash milliy o'zlikni anglashning bir qismidir.

O'zbek dialektologiyasida mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda sheva, lahja va dialekt atamaları turli ma'nolarda qo'llanib kelmoqda. Vaholanki, bu atamalarning ma'nosi bir-biridan deyarli katta farqqa ega emas.[3:4]

"Sheva" atamasi forscha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish kabi ma'nolarni ifodalab, biror bir tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismidir.[3:4] Lahja (arabcha so'z bo'lib, ifoda, so'z, sheva, ovoz kabi ma'nolarni ifodalaydi) shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisidir. Masalan, o'g'uz lahjasi, qipchoq lahjasi kabi. Mazkur atama ba'zan tor ma'noda, ya'ni sheva ma'nosida qo'llanilishi ham uchraydi. Masalan, Vodil qishloq lahjasi haqida bir necha so'z kabi.[3:4]

Dialekt shevaga nisbatan keng ma'noda qo'llaniladi. Adabiy tildan o'zining ba'zi bir xususiyatlari (chunonchi, fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari) bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikroq bo'lagi dialekt deb yuritiladi. U tilning eng kichik bo'lagi sanalgan shevalarning bir qanchasini o'zichiga oladi, ya'ni u shevalar

yig'indisidan tashkil topadi. Masalan, qirq, saroy, jo'sh, nayman, qo'nirot, qipchoq qoraqalpoq, baxmal, ming, burgut kabi shevalar birlashib, o'zbek tilining qipchoq dilalektini tashkil qiladi. Lekin ba'zan dialekt atamasining tor ma'noda, ko'pincha sheva ma'nosida qo'llanilishi ham uchraydi: Buxoro dialekti kabi.[3:5]

O'zbek shevalarini o'rganishda G'ozzi Olim Yunusov, Y. D. Polivanov, V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, M. Mirzayev, A. Aliyev, F. Abdullayev va boshqa olimlarning xizmati katta bo'ldi.[6:32]

O'zbek tili qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur kabi 3 ta til birligi sifatida shakllanib, murakkab dialektal tarkibi bilan ajralib turadi. Unda 3 ta asosiy lahja bor, bular:[4:55]

1. Janubi-sharqiy guruh: qarluq-chigil-uyg'ur shevalari. Bunga ko'pchilik shahar shevalari kiradi.

2. Janubi-g'arbiy guruh: o'g'uz shevalari — Xorazm va Qozog'iston, Turkmanistondagi ba'zi o'zbek shevalari.

3. Shimoli-g'arbiy guruh: bular qipchoq shevalari nomi bilan yuritiladi. Bu shevalarda y tovushi j ga o'tadi: yo'l, yo'q, kabi so'zlar jo'l, jo'q tarzida aytiladi.[6:32]

Dialektizmlarning nutqqa ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega. Rasmiy muloqotda, ilmiy va davlat tillari doirasidagi suhbatlarda dialektizmlarning qo'llanishi nutq madaniyatining buzilishiga olib keladi. Bu holat ko'pincha so'zlarning talaffuzida ko'rinadi. Masalan, Farg'ona shevasining Namangan lahja-sida kelutti, didomizza shaklida qo'llaniladi. Shahar shevalari (Toshkent, Namangan, Qo'qon, Farg'ona) umumiy tomonlarga ega bo'lsa ham, ayrim so'zlarda (tancha, turshak—Toshkent) va ba'zi qo'shimchalarda, unlilar talaffuzida (kevotti, kelutti, kelyapti; Sho'kat, Do'vlat, ating nima? Kitobdi o'qidingizmi?) farqlanib turadi. Shevadagi u yoki bu so'z umumxalq lug'atiga kirib, adabiy tildagi so'zga sinonim bo'la oladi: dovuchcha—g'o'ra, eshik—uy ma'nosida uy—hovli, tancha —sandal va b.

Ammo kelutti, alma, apa, ong'lar, biza, mayliz, nondi, devotsiz kabi talaffuz adabiy til me'yoriga to'g'ri kelmaydi. Ular faqat biror asar qahramonlari (biror shevaga mansub shaxslar) nutqida uchrashi mumkin: Ikkalasi bamisoli yalkat mag'iz.(As. M). Adashmasam, ocharni boshqa hech joyda qilishmaydi.(B. Daminov).[6:33]

Badiiy asarda dialektizmlarning qo'llanilishi nutq madaniyati talablariga zid kelmaydi, aksincha, asarning hayotiyligini ta'minlaydi. Muallif Oqsoqol tili orqali keltirgan —Mana, ma'lim, o'lmagan qul, sen je-men je kunlargayam etdik.[1:57] Jumlası qahramonning ijtimoiy qiyofasini shakllantirishda muhim bo'yoq bo'lib xizmat qiladi va kitobxonda personajga nisbatan emotsional yaqinlik uyg'otadi. Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida ham dialektlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, Toboq-toboq palov suzildi. Uchovora bir toboq bo'ldi.[8:3]

Qo'shimcha misollar: "Gurgurt" o'rniga "gugurt",

"Bala" o'rniga "bola",

"Yuzum" o'rniga "uzum",

"Yig'namoq" o'rniga "yig'moq".[5:1]

Bunday holatlar adabiy til me'yorlariga mos kelmaydi va tinglovchida tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Ayrim chet el filmlari to'laligicha sheva elementlari bilan tarjima qilinayotganligi, haqoratli so'z va qo'pol jumalarga o'rin berilganligi yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, ularning nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etmoqda.[7:60] Keyingi yillarda ayrim telekanallar, nodavlat radiokanallarida boshlovchilarning nutq madaniyatiga e'tiborlari talab darajasida bo'lmayapti.[7:65] Radiokanallarda eshittirish olib boruvchilarning nutqida noo'rin ishlatilayotgan ruscha so'z va birikmalar, sheva elementlari davlat tilining ijtimoiy nufuzi mavqeiga ozmi-ko'pmi salbiy ta'sir etishi tabiiy. Masalan, " Otvechayu", "Uchis, student uchis", " Etib (aytib) qo'yay oldindan", "bo'lli, bo'lli", "i"(va)," inyazda o'qiydigan", "osobenno" kabilar.[7:63]

Radio boshlovchilarining nutqida sheva elementlarining tez-tez uchrashi ham oddiy holga aylanib bormoqda. Masalan, "hazillashvopman", " o'qiydi-de", "o'qishlar ketvottimi", " radio tinglavopman", "man o'ylovdim", " Bizga bo'lli" va hokazolar.[7:63] Shuningdek, ular nutqida shevachilikka berilish ba'zan oddiy holga aylanib borayotgan bo'lsa, ayrim hollarda jumla tuzishda mavjud adabiy meyorga rioya etmaslik, palapartish gap tuzishlar, balandparvoz jumla qurishlar uchrab turibdi. Bunday hollar yoshlar nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etayotganligini boshlovchilar bilan bevosita aloqa qilayotgan, ularning savollariga javob berayotgan yoshlarning nutqida ham kuzatish mumkin.[7:65]

Dialektal so'zlarning badiiy adabiyotda o'rni bilan ishlatilishi faqatgina maqsadga muvofiq bo'lib qolmasdan, adabiy tizimning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qolishiga xizmat qilishi ham mumkin. Shuning uchun ham dilalektizmlar adabiy til me'yori va nutq madaniyatini belgilash tizimidagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, dialektizmlar milliy tilning boyligi, uning bitmas-tuganmas xazinasi hisoblanadi. Biroq nutq madaniyatini yuksaltirish uchun har bir so'zlovchi adabiy til me'yorlariga rioya qilishi, shevaga xos so'zlarni faqat badiiy yoki norasmiy vaziyatlarda o'rinli qo'llashi lozim. Shevalarni o'rganish orqali biz ona tilimizning tarixiy ildizlarini chuqurroq anglaymiz va uni kelajak avlodga asrab-avaylab yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi: Roman. —T.: "Sharq", 2012—624 b.
2. S. Ashirboyev. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent - 2013.
3. Y. Saidov. O'zbek dialektologiyasi - Buxoro: " Sadriddin Salim Buxoriy " Durдона nashriyoti, 2021. -74b.
4. Anorqulova Ozoda. IFODALI O'QISH Va NUTQ MADANIYATI. O'quv qo'llanma.- Samarqand: " Samarqand davlat chet tillari instituti " nashriyoti, 2024.- 160 bet.
5. Obidjonov Xojimurod Xudoyberdi o'g'li. Dialektizmlarning uslubiy xususiyatlari. International Conference on Research in Humanities Applied Sciences an Education. Hosted from Berlin, Germany June 5th 2022 <https://conferecea.org>

6. G'. ABDURAHMONOV, H. RUSTAMOV. ONA TILI 11-sinf uchun darslik. Toshkent "O'qituvchi" 2004.
7. MUHAMMADIYEV AKMAL SADRIDDINOVICH. NUTQ MADANIYATI MUAMMOLARINING GAZETADA YORITILISHI. SAMARQAND - 2012.
8. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. Qissa. Toshkent. 2024.